

## YANGI O‘ZBEKISTONDA YOSH MUTAXASSISLAR MEHNAT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOIIY-FALSAFIY AHAMIYATI

Xolmirzayeva Jumagul Xamdammovna

**Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)**

**FarDU mustaqil izlanuvchisi**

**<https://doi.org/10.5281/zenodo.21272521>**

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Yangi O‘zbekiston sharoitida yosh mutaxassislar mehnat madaniyatini rivojlantirish masalasi ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilingan. Mehnat madaniyati yosh avlodning kasbiy kamoloti, shaxsiy rivojlanishi, ijodiy faolligi, mas‘uliyat va halollik kabi muhim sifatlarini shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega ekani asoslab berilgan. Maqolada mehnat madaniyatining shakllanish bosqichlari — ta‘lim, mehnat tajribasi, ijtimoiy muhit va innovatsion faoliyat — hamda milliy qadriyatlarining bu jarayondagi o‘rni yoritilgan. Shuningdek, mehnat madaniyati samarali mehnat muhitini vujudga keltirish va mamlakat iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishning muhim omili ekani ta‘kidlangan. Xulosada yosh mutaxassislar mehnat madaniyatini rivojlantirish strategik ahamiyat kasb etishi qayd etilgan.

**Kalit so‘zlar:** mehnat madaniyati, yosh mutaxassis, kasbiy rivojlanish, ijodiy faollik, mas‘uliyat, halollik, innovatsiya, milliy qadriyat, ijtimoiy muhit, barqaror taraqqiyot.

### KIRISH

Hozirgi bosqichda Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining ustuvor vazifalaridan biri yosh mutaxassislarda mehnat madaniyatini yuksaltirish hisoblanadi. Bu jarayon iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, yuqori malakali va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash hamda barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta‘minlash bilan uzviy bog‘liqdir. Yoshlarning kasbiy faolligi, halol mehnatga intilishi va milliy qadriyatlarga asoslangan mehnat madaniyati davlatning strategik maqsadlarini amalga oshirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Shu ma‘noda, mehnat madaniyatini rivojlantirish nafaqat jamiyat va iqtisodiyot taraqqiyoti, balki yoshlarning shaxsiy kamoloti, mas‘uliyatlilik va ijodiy faolligini oshirish uchun ham katta ahamiyatga ega.

**METODLAR** yosh mutaxassislar mehnat madaniyatini o‘rganish jarayonida tahliliy, qiyosiy, empirik, statistik hamda tarkibiy-tashkiliy tadqiqot usullaridan foydalanildi. Shuningdek, nazariy qarashlar va amaliy tajribalar uyg‘unligi asosida ilmiy xulosalar chiqarildi.

### NATIJALAR

Yoshlar tarbiyasiga e‘tibor qaratish jarayonida, avvalo, ularning ma‘naviy-axloqiy dunyosiga, xususan, mehnat madaniyatiga murojaat etish zarur. Bugungi kunda mehnat madaniyatini rivojlantirish jamiyat, iqtisodiyot va turli ijtimoiy tizimlar samaradorligi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Buni quyidagi omillar bilan izohlash mumkin.

Birinchidan, ish joyida ijobiy muhitning shakllanishi. Rivojlangan mehnat madaniyati mehnat muhitini sog‘lomlashtiradi, xodimlarning ish unumdorligi, ijodkorligi va kasbiy qiziqishini oshiradi.

Ikkinchidan, mehnat huquqlarini himoya qilish. Mehnat madaniyati ishchilarning huquq va manfaatlarini ta‘minlashda muhim mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi hamda kelajakdagi mojarolarning oldini oladi.

Uchinchidan, yosh mutaxassislarining kasbiy o'sishi. Yuksak mehnat madaniyati yoshlarning bilim va ko'nikmalarini muntazam oshirishga, professional rivojlanishga zamin yaratadi.

To'rtinchidan, ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlash. Mehnat madaniyati ish beruvchi va xodimlar o'rtasida samarali muloqot, jamoaviy hamkorlik va o'zaro ishonchni ta'minlaydi.

Beshinchidan, innovatsion tafakkurning shakllanishi. Tartibli va mas'uliyatli mehnat muhiti yangicha g'oyalar, texnologiyalar va usullarni joriy etishga rag'batlantiradi.

### **MUNOZARALAR**

Mehnat madaniyatining rivojlanishi muayyan bosqichlar orqali amalga oshadi. Ushbu bosqichlar shaxsning mehnat idroki, amaliy faoliyati va axloqiy-estetik qadriyatlari bilan uzviy bog'liq.

Birinchi bosqich — **mehnatga tayyorgarlik** bo'lib, u ta'lim muassasalarida olinadigan kasbiy bilimlar va ma'naviy-axloqiy asoslarni qamrab oladi.

Ikkinchi bosqich — **mehnat faoliyati**, ya'ni yosh mutaxassisning ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish yoki ilmiy tadqiqot jarayonida ishtirok etishi bilan tavsiflanadi.

Uchinchi bosqich — **shaxsning mehnatdagi rivoji**, bunda mehnat etikasi, mas'uliyat va kasbga bo'lgan munosabat mustahkamlanadi.

To'rtinchi bosqich — **mehnat madaniyatining yuksalishi**, innovatsion talablar va ijodiy faoliyatning faollashuvi bilan bog'liq.

Beshinchi bosqich — **mehnat madaniyatining integratsiyalashgan holati** bo'lib, unda axloqiy me'yorlar, nazariy bilimlar va amaliyot o'zaro uyg'unlashadi.

Shu bilan birga, muqobil manbalarga tayangan holda mehnat madaniyatining shakllanishini quyidagi bosqichlarga ajratish mumkin: talab va motivatsiya, ta'lim va tayyorgarlik, mehnat tajribasi, ijtimoiy-professional muhit, axloqiy me'yorlar va madaniylashtirish va boshqalar. Yoshlikdan kasbga qiziqish, mehnatga nisbatan mas'uliyat va axloqiy me'yorlarni anglash mehnat madaniyatining dastlabki asosini tashkil etadi. Ta'lim tizimi esa mazkur jarayonda hal qiluvchi o'rin tutadi.

Mehnat madaniyatining rivojlanishi yosh mutaxassisning nafaqat kasbiy, balki shaxsiy kamolotiga ham ta'sir ko'rsatadi. Bu insonning milliy o'zligini anglashi va ma'naviy yuksalishi bilan bevosita bog'liqdir. "Milliy o'zlikni anglash va milliy g'oyaning ob'ekti hamda sub'ekti insondir. Ularni inson o'zining ongi, tafakkuri va intellektual salohiyati bilan shakllantiradi. Ayni paytda, ular insonning ma'nan yuksalib, shaxs darajasida shakllanishiga xizmat qiladi"<sup>1</sup>. Mehnat madaniyati ishga bo'lgan munosabatni, mas'uliyat va intizomni shakllantiradi, ijtimoiy hamkorlikni mustahkamlaydi va iqtisodiy rivojlanishga xizmat qiladi. Shu ma'noda, ma'naviy ehtiyojlar ham mehnat madaniyati bilan chambarchas bog'liq: "Inson ma'naviy dunyosining eng muhim elementlaridan biri ma'naviy ehtiyojlardir..."<sup>2</sup>. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar inson manfaatlarini ta'minlashga qaratilgan bo'lib, yoshlarda ma'naviy ehtiyojlarning shakllanishi jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, milliy qadriyatlarning ommaviy madaniyat tahdidlaridan himoya qilinishi alohida ahamiyat kasb etadi<sup>3</sup>.

### **XULOSA**

Xulosa qilib aytganda, Yangi O'zbekiston sharoitida yosh mutaxassislar mehnat madaniyatini rivojlantirish mamlakatning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti va raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda muhim o'rin tutadi. Mehnat madaniyati yoshlarning

kasbiy va shaxsiy kamolotini ta'minlab, ularda mas'uliyat, halollik, ijodiy faollik va samarali hamkorlik ko'nikmalarini rivojlantiradi. Ta'lim, mehnat tajribasi, ijtimoiy muhit va innovatsion faoliyatga asoslangan mehnat madaniyati milliy qadriyatlar bilan uyg'un holda jamiyatda barqaror va samarali mehnat muhitini shakllantiradi. Shu bois mehnat madaniyatini rivojlantirish shaxs va davlat taraqqiyoti uchun strategik ahamiyatga ega.

### **Adabiyotlar, References, Литературы:**

1. Suvanov I.A. *Shaxs ma'naviyatini yuksaltirishda milliy g'oya va o'zlikni anglash dialektikasi*. Falsafa fanlari bo'yicha PhD dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2018. – B.12.
2. Begmatov A., Anvarova D. *Ma'naviy tarbiya*. – Toshkent: Akademiya, 2013. – B.26.
3. Yaxshiev A.J. *Globalashuv sharoitida yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirish shartlari*. – Toshkent, 2015. – B.304.